

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13316986>

MILLIY DAROMADNI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQLARNING AHAMIYATI

Shirinbayeva Sevinch Faxriddin qizi
TDIU Samarqand filiali 2-bosqich talabasi
sevinchshirinbayeva9@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Togayev Salim Sobirovich**
“Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.f.d.

***Annotatsiya:** Zamonaviy sharoitda soliqlarning davlat byudjetini shakllantirishdagi roli takror ishlab chiqarish jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. “Turli xil muammolarni hal qiladi iqtisodiy o‘rni rag‘batlantirish, aholi bandligini tartibga solish, tarmoq va hududiy tuzilmalarda progressiv siljishlarni rag‘batlantirish, eksportni qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalar belgilandi”.¹*

***Kalit so‘zlar:** davlat byudjeti, davlat byudjeti daromadlari, soliqlar, sof daromad, soliqdan tashqari daromadlar.*

ЗНАЧЕНИЕ НАЛОГОВ В ФОРМИРОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНОГО ДОХОДА

***Аннотация:** В современных условиях роль налогов в формировании государственного бюджета является составной частью воспроизводственного процесса. Для решения различных проблем поставлены такие задачи, как стимулирование экономического роста, регулирование занятости населения, стимулирование прогрессивных изменений в промышленности и региональных структурах, поддержка экспорта.*

***Ключевые слова:** государственный бюджет, доходы государственного бюджета, налоги, чистый доход, неналоговые доходы, финансовая категория, потребности.*

¹ Rizayeva Kumush Mehriddinovna “DAVLAT BYUDJENTNI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQ O‘RNI”

THE IMPORTANCE OF TAXES IN FORMING THE NATIONAL INCOME

Abstract: *In modern conditions, the role of taxes in the formation of the state budget is a component of the reproduction process. Tasks such as stimulating economic growth, regulating population employment, encouraging progressive changes in industry and regional structures, and supporting exports have been set to solve various problems.*

Key words: *state budget, state budget revenues, taxes, net income, non-tax revenues, financial category, needs.*

Kirish.

Davlat byudjetining asosiy moliyaviy kategoriya sifatida jamiyat hayotidagi rolining oshib borishiga birinchi navbatda uning daromad bazasi qay tarzda va qay darajada shakllantirilganligiga bog'liq. Shu jihatdan olganda davlat budjetining daromadlarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Davlat budjetini, soliqlarni samarali shakllantirish jarayoni, avvalambor, puxta ishlab chiqilgan budjet – soliq siyosatini yuritish va oqilona soliq ma'murchiligini tashkil etishga bog'liq bo'ladi. Davlat byudjetini to'g'ri tahlil etish, tegishli sohalararo taqsimlash, qo'shimcha daromad manbalarini topish va davlat byudjetini yanada kengaytirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan rivojlangan davlatlarda soliq siyosatini byudjet daromadlari istiqbolini belgilash bo'yicha to'plangan keng va boy tajribalarni chuqur o'rganish hamda ularni milliy iqtisodiyotga tatbiq etish yo'llari ishlab chiqilmoqda.

Amaliyotda va umuman iqtisodiy fanda soliqlarning mohiyatiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. Shu sababli ham soliqlardan har bir davlat tomonidan o'ziga xos tarzda foydalaniladi.¹ Soliqlar davlat budjeti daromadlarining asosiy va birlamchi manbayi ekanligi tufayli, ularning mohiyatini ochish maqsadida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Soliqlar – davlat budjetining asosiy manbayi ekanligini nazariy jihatdan V.Petti birinchilardan bo'lib asoslab bergan.

¹ Zaynalov J.R., Aliyeva S.S., Axrorov Z.O. "Soliqlar va soliqqa tortish."

Tadqiqot metodologiyasi.

Mavzuni o'rganish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, statistik usullar, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, milliy daromadni qayta taqsimlash va shu asosda byudjet daromadlarini shakllantirishning asosiy usuli soliqlar hisoblanadi. Turli mamlakatlar markaziy byudjetlarining daromadlarida soliq tushumlari qariyb 60-95 foizni tashkil etadi.

Soliq munosabatlarini tashkil qilishda, soliq to'lovchilar va davlat o'rtasida daromadlarning taqsimlanishida tomonlarning iqtisodiy manfaatlarini albatta e'tiborga olish zarur.



2 – rasm. 2024– yilning yanvar – fevral oylarida eng ko'p soliq to'lagan yirik soliq to'lovchilar ro'yxati

Ma'lum qilinishicha, shundan 8,7 trln so'mi davlat ulushi mavjud top-10 ta yirik soliq to'lovchi hisobiga to'g'ri keladi. Ushbu o'nlikda soliq to'lovlari bo'yicha "Navoiy kon metallurgiya kombinati" yetakchilik qilmoqda – 4,5 trln so'm.

"Kuchli beshlik"dagi soliq to'lovchilar:

- "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ – 1,3 trln so'm;
- "Hududgazta'minot" AJ – 677,9 mlrd so'm;
- "O'zbekneftgaz" AJ – 525,9 mlrd so'm;
- "Uzgaztrade" AJ – 523,9 mlrd so'm.

1,3 trln so'mi xususiy sektordagi top-10 yirik soliq to'lovchilar hisobiga to'g'ri keladi. Mazkur reytingda "UZ BAT" AJ QK – 436 mlrd so'm soliq tushumlarini amalga oshirgan holda eng yuqori ko'rsatkich qayd etgan.¹

Xulosa.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yirik soliq to'lovchilardan undirilayotgan soliqlar davlat byudjetida salmoqli o'rinni egallaydi. Shu sababli ham yirik soliq to'lovchi korxonalarda soliq ma'murchiligini takomillashtirish, soliqlarni hisoblab chiqarish va undirish jarayonlarini avtomatlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. - T.: O'zbekiston,2023.
2. Zaynalov J.R., Aliyeva S.S., Axrorov Z.O. "Soliqlar va soliqqa tortish."
3. Toraev, C. (2016). Bank ishi" fanidan uslubiy qo'llanma. *Scienceweb academic papers collection.–2016.*
4. Oetarjo M. et al. Online Reviews and Ratings Shape Purchasing Decisions in Indonesian E-Commerce //International Conference on Intellectuals' Global Responsibility (ICIGR 2022). – Atlantis Press, 2023. – C. 557-566.

¹ <https://daryo.uz/2024/03/13/ozbekistonda-2024-yilning-ikki-oyida-eng-kop-soliq-tolagan-yirik-soliq-tolovchilar-ochiqlandi>

5. Togayev, S., & Kenjaboyeva, K. (2022). Characteristics of the Analysis of the External Environment in the Process of the Developing a Strategy for the Development of Commercial Banks. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 1(3), 29-32.
6. Behzod oqli R. S., Togayev S. S. Iqtisodiyotni rivojlantirishda soliq tushumlarining maqsadi va vazifalari //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 222-225.
7. Togayev, S., & Latibov, B. (2022). Features of Implementation of Market Segmentation Policy in Bank Marketing. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 1(3), 23-28.
8. Novianti D. A. et al. Enhancing Buying Interest: Marketing Mix and Instagram's Impact on Lontang Lantung Drinks //3rd Annual International Conference on Natural and Social Science Education (ICNSSE 2023). – Atlantis Press, 2024. – C. 655-663.
9. Togayev S. S. et al. Schools of strategic planning: a critical analysis of existing concepts //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – C. 488-494.
10. <https://t.me/fiskaltahlil/473>
11. <https://lex.uz/docs/-4416401>
12. <https://daryo.uz/2024/03/13/ozbekistonda-2024-yilning-ikki-oyida-eng-kop-soliq-tolagan-yirik-soliq-tolovchilar-ochiqlandi>